Har bir rasmga mos sarlavha toping.













## Yo‘l harakati qoidalari va belgilariga amal qiling!

1



1. Audiomatndan nimalarni bilib oldingiz?
2. Unda siz doim amal qiladigan qanday qoidalar keltirilgan?
3. Audiomatnda keltirilmagan yo‘l harakati qoidalaridan yana qaysilarini ayta olasiz?

Audiomatnni qismlarga bo‘lib, qayta so‘zlab bering. Audiomatn qismlariga qo‘yilgan sarlavhalarning mosini tanlab oling. Ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda ayting.

**1. Ota-onani hurmat qilish.**

**Mahallarda qanday harakatlanish kerak?**



**2. Men – yo‘lovchiman.**

**Biz yo‘llarda turli vazifalarni bajaramiz.**







Не для печати

**3.** **Yo‘l harakati qoidalariga rioya qilamiz.**

**Uydan maktabgacha bo‘lgan yo‘l.**





**4.** **Yo‘lni kesib o‘tish.**

**Yo‘llarda yurish qoidalari.**



She’rni o‘qing. Unda qanday qoidalar haqida gap ketyapti? Fikringizni izohlang.

Yo‘lni kesish joyida
Shunday bo‘lar qoida.
Doim amal qil bunga,
Ko‘rasan faqat foyda.

Chalg‘imay sira gapga,
Qaramoq kerak chapga.
Angraymay oldga, so‘ngga,
So‘ng qarash kerak o‘ngga.

Shoshmay tursin shoshqaloq,
Otmay tursin shataloq.
Yonganda yashil chiroq,
Yo‘ldan o‘ta qol tezroq.



Berilgan gaplar orasidan audio matnda keltirilgan gapni aniqlang.

- Maktabga borish va kelishda o‘rganib chiqilgan “Uy – maktab – uy” yo‘nalishi orqali harakatlaning.
- Oromgohlarga borganda ham ovqatlanish qoidalariga to‘liq rioya qiling.
- Yo‘lni faqat yerosti va yerusti o‘tish joylaridan hamda “Piyodalar o‘tish joyi” belgisi mavjud joylardan kesib o‘ting.
- Farovon va sog‘lom yashashimiz uchun albatta ma’lum qoidalarga amal qilishimiz, mas’uliyatli bo‘lishimiz zarur.

**Audiomatnda berilgan qoidalarni oila a’zolaringizga so‘zlab bering. Ulardan yana qanday qoidalar bor ekanligini so‘rab, bilib oling. Maktabdan uyingizgacha bo‘lgan yo‘ldagi yo‘l belgilariga e’tibor bering va ulardan uchtasining rasmini chizing.**